

**«TURONBANK» AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI AKSIYADORLARINING
NAVBATDAGI YILLIK UMUMIY YIG'ILISHI**
BAYONIDAN KO'CHIRMA

**2025-yil 13 iyun
soat 17:00**

AS-1

**Toshkent shahri Abay
ko'chasi, 4a-uy**

Chiqarilgan ovoz beruvchi aksiyalarning umumiyligi soni: **868 057 456** dona.

Joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarning umumiyligi soni: **868 057 456** dona.

Yig'ilishda qatnashish uchun ro'yxatga olingan ovoz beruvchi aksiyalarning umumiyligi soni: **859 823 092** dona.

Yig'ilishda qatnashganlar soni: Aksiyadorlar va ularning nomidan qatnashayotgan vakillar soni **6** kishi.

Jumladan: ishonchnoma orqali qatnashayotgan vakillar soni - **5** kishi va o'z nomidan qatnashayotgan aksiyadorlar soni – **1** kishi.

KVORUM – 99,05%

Shuningdek, bank Kengashi a'zolari bank Boshqaruvi Raisi v.b Ch.S.Mirzayev hamda bank Boshqaruvi a'zolari, departament direktori, "**Ernest & Young**" auditorlik kompaniyasi direktori **A.S.Azamovlar** ishtiroy etdilar.

Yig'ilish raisi **F.X.Malikov** – Kuzatuv kengashi a'zosi.

Yig'ilish kotibi: **D.T.Gaynazarova** - Korporativ Konsultant v.v.b.

Umumiyligi yig'ilish sanoq komissiyasi raisi "Turonbank" ATB Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti direktori - Nuriddin Ibragimovich Tangniberdiyev, Sanoq kommissiya a'zolari esa "Turonbank" ATB Chakana biznes departamenti direktori – Alisher Kuchkarovich Talipov, "Turonbank" ATB Moliya bozoridagi operatsiyalar departamenti direktori o'rinnbosari - Bobur Alisher O'g'li Botirovlar aksiyadorlarning ovozlarini hisoblash va yig'ilish kvorumni mavjudligini aniqlash bo'yicha ish olib bordilar.

Yig'ilish raisi aksiyadorlardan bank Kengashi tomonidan tuzilgan sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlab berishlarini so'radi.

Yig'ilishda sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibi bir ovozdan tasdiqlandi.

Umumiyligi yig'ilishga Raislik qiluvchi **F.X.Malikov** O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari" va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga hamda "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga amal qilib, 2025-yil 22-mayda bank Kengashining K-34-sonli qaroriga asosan bank aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiyligi yig'ilishini 2025-yil

13-iyun kuni chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi, yig‘ilishni o‘tkazish to‘g‘risidagi xabar va yig‘ilish kun tartibi 2025-yil 22-may kuni “Birja” gazetasining 41(3235)-sonida, e’lon qilinganligini, qonunda belgilangan tartibda aksiyadorlarga xabar qilinganligini hamda barcha tashkiliy tadbirlar to‘liq amalga oshirilganligini ta’kidlab o‘tdi.

Umumiy yig‘ilishda aksiyadorlar va ularning vakillari ishtiroki hamda yig‘ilishda kvorum mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot berish uchun so‘z Sanoq komissiyasi raisi **N.I.Tangniberdiyevga** berildi.

Sanoq komissiyasi raisi **N.I.Tangniberdiyev** Sanoq komissiyasi majlisining 3-sonli bayonnomasini o‘qib eshittirdi va “Turonbank” ATB aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi vakolatli hisoblanishini ma’lum qildi (Sanoq komissiyasi majlisining 3-sonli bayonnomasi ilova qilinadi,*1-ilova*).

Yig‘ilish ishtirokchilari Sanoq komissiyasining 3-sonli bayonnomasini bir ovozdan ma’lumot uchun qabul qildilar.

Shundan so‘ng, bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi bir ovozdan ochiq deb e’lon qilindi.

Yig‘ilish hay’atiga bank Kengashi a’zolari – **F.X.Malikov, O.O.Olimjonov, G.H.Zavada** va Bank Boshqaruvi Raisi v.b. **Ch.S.Mirzayev** hamda yig‘ilish kotibiyatiga **D.T.Gaynazarova** saylandilar.

KUN TARTIBI:

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibi quyidagicha e’lon qilingan:

1. Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishining sanoq komissiyasi shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. “Turonbank” ATB aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash.
3. Bankning 2024 moliyaviy yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha hisobotini hamda 2025-yilda bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bank Boshqaruvining hisobotini tasdiqlash.
4. Bankning 2024-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha tashqi audit xulosasini ko‘rib chiqish.
5. Bank Kengashining 2024-yildagi faoliyati bo‘yicha hisobotini hamda bankning rivojlanish strategiyasiga erishishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash.
6. Bankning 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobini tasdiqlash.
7. Bankning “umidsiz” aktivlarini undirish bo‘yicha qo‘llanilgan chora-tadbirlar haqidagi hisobotini tasdiqlash.
8. Bankning o‘tgan yillarning taqsimlanmagan (jamg‘arilgan) foydasini, shu jumladan bankning 2024-yil yakunlari bo‘yicha olingan sof foydasini taqsimlash tartibini tasdiqlash.
9. Bankda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish.

10. Bankning 2025-yil uchun tashqi auditorini tasdiqlash va unga to‘lanadigan xizmat haqqining eng ko‘p miqdorini belgilash.

11. “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bankning kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiyligiga bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar hamda yirik bitimlar ro‘yhatini aniqlash va ularning amalga oshirilishini ma’qullah.

12. “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

13. Bank balansidan tashqari hisobraqamiga olingan aktivlarni hisobdan chiqarish.

14. Bank Boshqaruvi Raisi bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish masalasini ko‘rib chiqish.

Bank aksiyadorlarining yillik hisobot umumiyligiga bo‘lgan mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish masalasini ko‘rib chiqish. **F.X.Malikov** bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan yig‘ilish reglamentini taklif etdi va ovozga qo‘ydi. (*ilova qilinadi, 2-ilova*).

Reglament bir ovozdan tasdiqlandi.

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiyligiga bo‘lgan mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish masalasi yuzasidan bank Boshqaruvining hisobotini Boshqaruv raisi v.b. **CH.S.Mirzayev** so‘zga chiqib, Bankning 2024 moliyaviy yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha hisoboti hamda 2025-yilda bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bank Boshqaruvining hisoboti to‘g‘risida ma’ruza qildi (*hisobot ilova qilinadi, 3-ilova*).

Ushbu masala bank aksiyadorlari tomonidan ma’qullandi.

Kun tartibining **to‘rtinchisi** masalasi bo‘yicha Boshqaruv raisi o‘rnibosari v.b. **T.X.Axmedov** Bankning 2024-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha tashqi audit xulosasini o‘qib eshittirdi. (*Xulosa ilova qilinadi, 4-ilova*).

Kun tartibidagi **to‘rtinchisi** masala yuzasidan aksiyadorlar tomonidan berilgan savollarga **“Ernest&Young”** auditorlik kompaniyasi direktori **A.S.Azamov** tomonidan javob berildi.

Ushbu masala bank aksiyadorlari tomonidan ma’qullandi.

Kun tartibining **beshinchisi** masalasi yuzasidan Majlis Raisi **F.X.Malikov** Bank Kengashining 2024-yildagi faoliyati bo‘yicha hisobotini hamda bankning rivojlanish strategiyasiga erishishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisoboti”ni o‘qib eshittirdi (*hisobot ilova qilinadi, 5-ilova*).

Ushbu masala bank aksiyadorlari tomonidan ma’qullandi.

Kun tartibidagi **oltinchisi** masala yuzasidan “Turonbank” ATB Bosh buxgalteri **Sh.E.Bozorov** bankning yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotini o‘qib eshittirdi. (*hisobot ilova qilinadi, 6-ilova*)

Ushbu taklif bank aksiyadorlari tomonidan ma’qullandi.

Kun tartibidagi **yettinchisi** masala yuzasidan “Turonbank” ATB **Muommoli aktivlar bilan ishlash departamenti direktori Z.N.Boboyev** Bankning “umidsiz”

aktivlarini undirish bo‘yicha qo‘llanilgan chora-tadbirlar haqida quyidagi hisobotni o‘qib eshittirdi:

2025-yil 1-yanvar holatiga bankni balansdan tashqari **95413** hisobrakamida yuritilayotgan kredit qarzdoriligi **194,2 mlrd.** so‘mni tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilni boshiga (**200,4 mlrd so‘m**) nisbatan **6,2 mlrd so‘mga** kamaygan. Bundan tashqari **91501** hisobrakamida yuritilayotgan foiz qarzdoriligi hisobot davrida **139,2 mlrd.** so‘m tashkil qilib ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilni boshiga **153,0 mlrd.** so‘m bo‘lib **13,8 mlrd so‘mga** kamaygan.

2024-yil davomida “Ko‘zda tutilmagan holatlar” hisobraqamida hisobi yuritib kelinayotgan qarzdorlar bo‘yicha jami **1 300 ta** qarzdorning **45,7 mlrd so‘m** kredit qarzdorligi so‘ndirildi. Shundan, **yuridik shaxslarga** tegishli **67 ta** kredit qarzdorliklari bo‘yicha **36,6 mlrd.** so‘m, **jismoniy shaxslarning 1233 ta** kredit qarzdorligi bo‘yicha **9,1 mlrd.** so‘m miqdoridagi kredit qarzdorliklari undirilishi ta’minlandi.

2024-yil davomida **91501** hisobraqamida hisobi yuritib kelinayotgan foiz qarzdorlar bo‘yicha jami **1402 ta** qarzdorning **19,3 mlrd. so‘m** kredit qarzdorligi so‘ndirildi. Shundan, **yuridik shaxslar** bo‘yicha **133 ta** kredit qarzdorliklari bo‘yicha **15,7 mlrd. so‘m**, **jismoniy shaxslar** bo‘yicha esa **1269 ta** kredit qarzdorligi bo‘yicha **3,6 mlrd. so‘m** miqdoridagi kredit qarzdorliklari undirilishi ta’minlandi.

Xususan, 95413 – xisobraqamlaridagi yuritilayotgan TOP-5 yirik qarzdorliklar so‘ndirilgan:

Xorazm BXMDa (**Sabr Agro Logistik FX - 7,0 mlrd so‘m**),

Namangan BXMDa (**Zakovat Sof Qog‘oz - 3,1 mlrd. so‘m** va **Uzgidrotexnik MCHJ – 3,1 mlrd. so‘m**),

Mirobod BXMDa (**Glav Gidro Beton MCHJ - 2,9 mlrd so‘m**),

Sirdaryo BXMDa (**Asalchi Qum Shag‘al MCHJ - 2,8 mlrd so‘m**),

Samarqand BXMDa (**Do‘stbek Oqdaryo XK - 1,9 mlrd. so‘m**) qarzdorliklari undirilishi ta’minlandi.

Jami undirilgan yirik qarzdorlik summasi - **20,8 mlrd so‘m.** tashkil etdi.

Shuningdek, Bankning balansdan tashqari 95413 va 91501-hisobrakamlarida yuritilayotgan qarzdorliklarni undirish yuzasidan hozirda sud va ijro organlari bilan o‘zaro hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Yig‘ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so‘radi.

Kun tartibining **sakkizinch** masalasi, ya’ni Bankning o‘tgan yillarning taqsimlanmagan (jamg‘arilgan) foydasini, shu jumladan bankning 2024-yil yakunlari bo‘yicha olingan sof foydasini taqsimlash tartibini tasdiqlash yuzasidan **Majlis Raisi** bank Kengashining taklifi quyidagicha bildirilganligini aytib o‘tdi, jumladan:

2024-yil 31-dekabr holatiga Turonbankning taqsimlanmagan foydasi milliy standartlarga asosan **23,1 mlrd.so‘mni**, Molivaviy hisobotlarning xalqaro

standartlariga asosan ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zahiralarni hisobga olgan holda 47,7 mldr.so‘mni tashkil etgan.

Bankning o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foydasi hamda 2024-yil yakunlari bo‘yicha olingan 23,1 mldr.so‘m sof foydasini quyidagi tartibda taqsimlash taklif etilmoqda, Jumladan:

- Bankning 2024-yil yakuni bo‘yicha olingan sof foydadan 5,0 foizi miqdorida zaxira fondiga ajratma sifatida – 1,16 mldr.so‘m ajratish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 24-sonli Qarori bilan tashkil etilgan Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga sof foydaning 10,0 foizi miqdorida, ya’ni 2,31 mldr.so‘m ajratilsin;

- Nominal qiymati 1 700 so‘m bo‘lgan bir dona imtiyozli aksiya uchun 340 so‘m yoki nominal qiymatiga nisbatan 20 foiz miqdorida dividend to‘lash uchun — 1,69 mldr.so‘m ajratish.

Dividend to‘lash muddatining boshlanish sanasi 2025-yil 1-iyul etib belgilansh va 2025-yil 13-avgustgacha amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to‘lab berish.

- Bankning 2024-yil yakunlari bo‘yicha olingan sof foydasining qolgan 17,99 mldr.so‘mi Bank ustav kapitalini oshirishga yo‘naltirish.

Yig‘ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so‘radi.

Majlis kun tartibining **to‘qqizinchi** masalasi, ya’ni bankda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish masalasi yuzasidan Korporativ konsultant **D.T.Gaynazarova** so‘zga chiqib, quyidagilarni gapirdi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli Farmoni ijrosi talablaridan kelib chiqqan holda, Turonbankda Korporativ boshqaruv tizimini baholash uchun «**SILK CAPITAL**» **MCHJ** tomonidan bankda 2024-yil yakuni bilan Korporativ boshqaruv tizimini baholash ishlari o‘tkazildi.

Turonbankda korporativ boshqaruv tizimi 2024-yil yakunlari bo‘yicha baholash natijalari “yuqori” **902 ball** deb baholandi.

Korporativ boshqaruv tizimi bo‘yicha maksimal ball **1 200** ballni tashkil etib, to‘plangan **902** ball asosan quyidagi yo‘nalishlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bular:

- Korporativ boshqaruv kodeksini joriy qilishga tayyorgarlik ko‘rish tartibi – **135** ball;

- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya qilinishi – **335** ball;

- Jamiatning tashkiliy tuzilmasini muvofiqligi – **30** ball;

- Konkurs bo‘yicha tanlov o‘tkazilishi – **15** ball;

- MXXS va auditning xalqaro standartlariga muvofiq axborot oshkor qilishga o‘tish – **50** ball;

- Zamonaviy boshqaruv tizimini (ISO, ERP, NIOKR va bshq.) joriy qilish — **(-45)** ball (Bu yil ISO sertifikatini olish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi);
- Axborotlashtirish siyosati bahosi – **317** ball;
- Moliyaviy natijalar bahosi – **10** ball;
- Boshqa yo'nalishlar bahosi – **50** ball) (hisobot ilova qilinadi, 7-ilova)

Yig'ilish raisi bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so'radi.

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi kun tartibining **o'ninchি masalasi** ya'ni, bankning 2025-yil uchun tashqi auditorini tasdiqlash va unga to'lanadigan xizmat haqqining eng ko'p miqdorini belgilash masalasi bo'yicha bank Ichki audit departamenti direktori **D.Sultanov** so'zga chiqib, quyidagilarni gapirdi:

2023-yilda 3 yil davomida moliyaviy yil faoliyati natijalarini tashqi auditdan o'tkazish maqsadida, bank tomonidan tijorat banklarini halqaro audit tekshiruvidan o'tkazish huquqiga ega bo'lган auditorlik tashkilotlar o'rtasida eng maqbul va arzon narxlarni aniqlash bo'yicha tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon maxsus axborot portalida joylashtirilgan va elektron savdolar birjasi orqali tanlov o'tkazilgan.

O'tkazilgan elektron savdolar natijasi ko'ra, "Ernest&Young" kompaniyasi uch yilga bankni tashqi auditdan o'tkazish bo'yicha 6,5 mlrd.so'mlik (QQS) bilan, bunda 2023-yil uchun tashqi auditorga to'lanadigan xizmat haqi 2,26 mlrd.so'm (QQS bilan), 2024-yil uchun tashqi auditorga to'lanadigan xizmat haqi 2,06 mlrd.so'mlik (QQS bilan) hamda 2025-yil uchun tashqi auditorga to'lanadigan xizmat haqi 2,13 mlrd.so'mlik (QQS bilan) eng maqbul va arzon taklifi bilan elektron savdo g'olib bo'lган.

Bank aksiyadorlarining 2023-yil 26-iyundagi navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi qaroriga asosan Bankning 2023- 2025-yillar uchun har yili aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan shartnomalariga asosan to'lov summasini qayta belgilash sharti bilan 3 yil muddatga tashqi auditori etib "Ernest&Young" kompaniyasi tasdiqlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bankning 2025 moliyaviy yil faoliyati natijalarini tashqi auditdan o'tkazish uchun tasdiqlangan "Ernest&Young" tashqi auditorlik tashkiloti va unga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini belgilash masalasini qayta tasdiqlash uchun bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritilmoqda.

Yig'ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so'radi.

Umumiy yig'ilish kun tartibining **o'n birinchi** masalasi bo'yicha Risk masalalari direktori **D.K.Ibragimova** so'zga chiqib, quyidagilarni gapirdi:

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishining 2015-yil

31-dekabrdagi 9 – son bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruva Kodeksining 15 – bandiga muvofiq ijroiya organining affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun Jamiyatning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni aniqlash masalasini aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida muhokama qilinishi ta’minlashi lozimligi hamda “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 88-moddasiga muvofiq Jamiyatning Kuzatuv Kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimni (bitimlarni) ma’qullash haqida qaror qabul qilishga haqli ekanligi belgilangan.

Qonunning 87 – moddasiga muvofiq, ijroiya organi va ichki audit xizmati affillangan shaxslar bilan tuziladigan bitimlarni o‘rganib chiqib yozma ravishda bayonnomaga tuzishi va Kuzatuv Kengashiga taqdim etishi belgilangan.

O‘z navbatida Kuzatuv Kengashi 15 kunlik muddat ichida ushbu bitimlarni o‘rganib chiqib, ularni tuzishga ruxsat beradi. Shu tariqa, affillangan shaxslar bilan shartnama tuzish masalasini Kuzatuv Kengashidan tasdiqlatishga kamida 20 – 25 kun vaqt sarf etiladi. Bu esa Bank likvidlilagini me’yor darajada ushlab turish maqsadida “Turonbank” ATB bilan affillangan bir qator banklar bilan o‘zaro depozit va boshqa shartnomalarni tezkor ravishda tuzilishiga to‘sinqlik qiladi.

Qonunning 91 – moddasiga ko‘ra yuqoridaq talablar jamiyat va affillangan shaxs o‘rtasidagi bitimni (bitimlarni) ma’qullash haqida jamiyat Kuzatuv Kengashining yoki Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qonunda belgilangan tartibda oldindan qabul qilingan qarori mavjud bo‘lganda qo’llanilmasligi belgilangan.

Shu munosabat bilan “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bankning kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar hamda yirik bitimlar ro‘yhatini aniqlash va tasdiqlash masalasi bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari yillik umumiy yig‘ilishi muhokamasiga kiritilmoqda. (*Ro‘yhat ilova qilinmoqda, 8-ilova*)

Yig‘ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so‘radi.

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilish kun tartibining o‘n ikkinchi masalasi bo‘yicha Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti direktori N.Tangniberdiyev so‘zga chiqib, jumladan quyidagilarni gapirdi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5992-sonli Qarori ijrosidan kelib chiqqan holda Turonbankda Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (XMK) bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlarida Xalqaro Moliya Korporatsiyasi konsultantlari tavsiyalari va takliflariga asosan Turonbankning amaldagi tashkiliy tuzilmasiga 2024-yilda ayrim tuzatish va o‘zgartirish kiritish yuzasidan bank Boshqaruvi tomonidan bank Kuzatuv Kengashiga murojaat qilindi.

Kuzatuv Kengashining tegishli qarori bilan keyinchalik Aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida tasdiqlatish sharti bilan bankning tashkiliy tuzilmasi ma’qullangan.

Jumladan, Bankning tashkiliy tuzilmasidagi **Bosh menedjerning** lavozimlari tugatilib, ularning o‘rniga bevosita tegishliligi bo‘yicha **Boshqaruv Raisi o‘rinbosarlariga bo‘ysunadigan** Kichik va o‘rta biznes departamenti direktori, Korporativ biznes departamenti direktori, Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti direktori, Chakana biznes departamenti direktori lavozimlarini joriy etildi, shu munosabat bilan tashkiliy tuzilmada departamentlar nomlanishi o‘zgargan.

Shu bilan birga, **Chakana biznes departamenti** - ikkita alohida **Chakana biznes departamenti** va **Bank karta tizimlarini** qo‘llab-quvvatlash departamentiga ajratildi.

Shuningdek, **Bank apparati** ishini nazorat qilish Boshqaruv Raisi o‘rinbosaridan Boshqaruv Raisi nazoratiga o‘tkazilgan.

Bank Ustavining 187.16.-bandiga asosan Bankning yangi tashkiliy tuzilmasi Kuzatuv Kengashining 2025-yil 8-yanvardagi K-3-sonli qarori bilan ma’qullangan bo‘lib, bugungi aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishiga tasdiqlash uchun kiritilmoqda. (9-ilova).

Yig‘ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so‘radi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakillari tomonidan Bank tashkiliy tuzilmasiga ko‘plab o‘zgarishlar kiritilayotgani aksiyadorlar tomonidan belgilangan strategik maqsadlarga erishishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ta’kidab etildi.

Bank aksiyadorlari navbatdagi yillik umumiyligi yig‘ilishi kun tartibining **o‘n uchinchi** masalasi yuzasidan **Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti direktori Z.N.Boboyev so‘zga chiqib, jumladan quyidagi larni gapirdi:**

Bankning balansidan tashqari 95413 va 91501 hisobraqamlariga olingan jami 4,095 mlrd. so‘m, shundan 95413 hisobraqamidagi 1,120 mlrd. so‘mlik va 91501 hisobraqamidagi 2,974 mlrd. so‘mlik 11 ta mijozga tegishli kredit (lizing) qarzdorliklarini hisobdan chiqarish masalasi Bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishi muhokamasiga kiritilgan.

Mazkur “umidsiz” deb tasniflangan bankning balansidan tashqari hisobraqamlariga olingan qarzdorliklarni undirish yuzasidan bank tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Xususan:

- Qarzdorlarga ogohlantirish va talabnomalar o‘z vaqtida yuborilgan;
- Sharhnomalar talablari bajarilmaganligi sababli Savdo-sanoat palatasi orqali sudlarga da‘vo arizalari kiritilgan;
- Sudlarning hal qiluv qarorlari qabul qilinganidan so‘ng, ijro qilishlik uchun MIB organlari ish yurituviga topshirilgan;

➤ MIB organlari bilan hamkorlikda 7 ta qarzdorlardan jami 2,149 mlrd. so‘m kredit qarzdorligi undirildi. (shundan asosiy qarzdorlik – 1,776 mlrd. va foiz - 373,0 mln.);

➤ MIB organlari tomonidan garov mulklari auksion savdosiga chiqarilib, savdodan tushgan pul mablag‘lari qarzdorlik uchun yo‘naltirilgan bo‘lsa, sotilmagan mol-mulklar bo‘yicha esa MIBning taklif xatiga asosan bank balansiga olingan;

➤ Qolgan qarzdorliklarni undirish bo‘yicha barcha harakatlar natijasiz bo‘lganligi va qarzdorlarning balansida yoki joylashgan manzilida qarzdorlik uchun undiruvga qaratilishi lozim bo‘lgan mol-mulkari mavjud emasligi sababli ijro hujjatlari MIB tomonidan amaldagi Qonunning 40-moddasi 3-qismi bilan ijrosiz qaytarilgan;

➤ Sudlarning tegishli ajrimlariga asosan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (bankrot) tugatilib, davlat reestiridan chiqarilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Sizlardan Bankning balansdan tashqari hisobraqamida yuritib kelingan 11 ta mijozga tegishli jami 4,095 mlrd. so‘m, shundan 95413 hisobraqamidagi 1,120 mlrd. so‘mlik asosiy qarz va 91501 hisobraqamidagi 2,974 mlrd. so‘mlik foiz kredit (lizing) qarzdorliklarini undirish bo‘yicha olib borilgan barcha harakatlar natijasiz bo‘lganligi, bugungi kunda qarzdorlarning balansida qarzdorlik uchun undiruvga qaratilishi lozim bo‘lgan mol-mulkari mavjud emasligi hamda qarzdorlikni undirish imkonsiz ekanligi sababli O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi” Nizomining 53-bandiga muvofiq hisobdan chiqarilishiga ruxsat berishlarining so‘rayman.

Yig‘ilish raisi **F.X.Malikov** bank aksiyadorlari va ularning vakillaridan ushbu masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda qaror loyihasi asosida byulletenlar orqali ovoz berishlarini so‘radi.

Bank aksiyadorlari navbatdagi yillik umumiyligi yig‘ilishi kun tartibining **o‘n to‘rtinchisi** masalasi yuzasidan **Majlis raisi** so‘zga chiqib, quyidagilarni gapirdi:

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 79-moddasiga muvofiq:

“Jamiyat direktorining, jamiyat boshqaruvi a’zolarining, ishonchli boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tegishincha ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinishi” ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib quyidagi qaror loyiha bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiyligi yig‘ilishi e’tiboriga havola etilmoqda:

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruvi Raisi Mirzayev Chori Sadibaqosovich o‘rtasida uni ishga yollash to‘g‘risida tuzilgan shartnomaning muddati bir yilga uzaytirilsin.

Shundan so‘ng, kun tartibidagi masalalar muhokamasiga o‘tildi.

Yig‘ilish Raisi kun tartibidagi masalalar bo‘yicha byulletenlar orqali ovoz berilishini aytdi.

Aksiyadorlar e’tiboriga **birinchi** masalasi bo‘yicha quyidagi qaror loyihasi havola etildi:

Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi sanoq komissiyasining shaxsiy tarkibi tasdiqlansin.

Aksiyadorlar ushbu taklifga byulletenlar orqali ovoz berdilar.

Aksiyadorlar e’tiboriga **ikkinci** masalasi bo‘yicha quyidagi qaror loyihasi havola etildi:

Bank aksiyadorlarining navbatdagi, yillik umumiy yig‘ilishining reglamenti tasdiqlansin.

Aksiyadorlar ushbu taklifga byulletenlar orqali ovoz berdilar.

Aksiyadorlar va ularning vakillari **uchinchi** masalasi bo‘yicha – Bankning 2024 moliyaviy yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha hisoboti hamda 2025-yilda bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bank Boshqaruving hisoboti tasdiqlansin degan taklifga ham byulletenlar orqali fikr bildirdilar.

Aksiyadorlar e’tiboriga **to‘rtinchi** masalasi bo‘yicha quyidagi qaror loyihasi havola etildi:

Bankning 2024-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha tashqi audit xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Aksiyadorlar ushbu taklifga byulletenlar orqali ovoz berdilar.

Bank Kengashining 2024-yildagi faoliyati bo‘yicha hisobotini hamda bankning rivojlanish strategiyasiga erishishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash to‘g‘risidagi **beshinchi** masalasi bo‘yicha tarqatilgan qaror loyihasiga aksiyadorlar va ularning vakillari byulletenlar orqali munosabat bildirdilar.

Kun tartibidagi **oltinchi** masala – Bankning 2024 moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobini tasdiqlash yuzasidan tarqatilgan qaror loyihasiga aksiyadorlar va ularning vakillari byulletenlar orqali ovoz berdilar.

Kun tartibidagi **yettinchi** masalasi bo‘yicha aksiyadorlar e’tiboriga xavola etilgan Bankning “umidsiz” aktivlarini undirish bo‘yicha qo‘llanilgan chora-tadbirlar haqidagi hisoboti yuzasidan tarqatilgan qaror loyihasiga aksiyadorlar va ularning vakillari byulletenlar orqali ovoz berdilar.

Kun tartibidagi **sakkizinchi** masalasi bo‘yicha aksiyadorlar e’tiboriga xavola etilgan Bankning 2024-yil yakunlari bo‘yicha olingan sof foydasini taqsimlash bo‘yicha tarqatilgan qaror loyihalariга muvofiq tasdiqlash uchun ovoz berdilar.

Kun tartibidagi **to‘qqizinchi** masalasi, bankda o‘tkazilgan korporativ boshqaruв tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqishni tasdiqlash bo‘yicha tarqatilgan qaror loyihalariга muvofiq tasdiqlash uchun ovoz berdilar.

Kun tartibidagi **o‘ninchi** masalasi, Bankning 2025-yil uchun tashqi auditorini tasdiqlash va unga to‘lanadigan xizmat haqining eng ko‘p miqdorini belgilash

bo‘yicha aksiyadorlar tarqatilgan qaror loyihamiga muvofiq tasdiqlash uchun ovoz berdilar.

Kun tartibidagi **o‘n birinchi** masalasi, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki tomonidan bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bankning kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiylig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar hamda yirik bitimlar ro‘yhatini aniqlash va ularning amalga oshirilishini ma’qullash bo‘yicha aksiyadorlar tarqatilgan qaror loyihamiga muvofiq tasdiqlash uchun ovoz berdilar.

Kun tartibidagi **o‘n ikkinchi** masalasi, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash bo‘yicha aksiyadorlar tarqatilgan qaror loyihamiga muvofiq tasdiqlash uchun ovoz berdilar.

Kun tartibidagi **o‘n uchinchi** masalasi, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash bo‘yicha aksiyadorlar tarqatilgan qaror loyihamiga muvofiq tasdiqlash uchun ovoz berdilar.

Majlis Raisi bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiylig‘ilishi kun tartibining **o‘n to‘rtinchi masalasi** yuzasidan bank Kengashining takliflari quyidagilardan iboratligini ta’kidladi, jumladan:

“Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruv Raisi Mirzayev Chori Sadibaqosovich o‘rtasida uni ishga yollash to‘g‘risida tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini bir yil muddatga uzaytirishga ruxsat berilsin.

Mazkur taklifga aksiyadorlar va ularning vakillari byulletenlar orqali ovoz berdilar.

Shundan so‘ng tanaffus e’lon qilindi.

(Tanaffusdan so‘ng)

Sanoq komissiyasi raisi **N.I.Tangniberdiyev** “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining yillik umumiylig‘ilishidagi ovoz berish natijalarini hisoblash bo‘yicha sanoq komissiyasining 3-sonli bayonnomasini o‘qib eshittirdi (10-ilova).

Jumladan, ovoz berish natijalari hisoblanganda quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

*Yig‘ilishda ishtirok etgan, ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan **6 dona** byulleten bo‘yicha jami ovozlar soni **859 823 092 ta**. Ovozga qo‘yilgan masala yuzasidan ovozlar quyidagicha taqsimlangan:*

Kun tartibining birinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **6 ta** byulleten bo‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya’ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining ikkinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **6 ta** byulleten bo‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya’ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Kun tartibining uchinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **6 ta** byulleten bo‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya’ni **100%**;

“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining to‘rtinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining beshinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining oltinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining yettinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining sakizinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **4 ta** byulleten bo ‘yicha **859 718 406 ta** ovoz, ya ’ni **99,99%**;
“Qarshilar” – **1 ta** byulleten bo ‘yicha **91 885 ta** ovoz, ya ’ni **0,01%**;
“Betaraflar” – **1 ta** byulleten bo ‘yicha **12 801 ta** ovoz, ya ’ni **0,00%**.

Kun tartibining to‘qqizinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining o‘ninchı masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining o‘n birinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining o‘n ikkinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **6 ta** byulleten bo ‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;
“Qarshilar” – yo ‘q;
“Betaraflar” – yo ‘q.

Kun tartibining o‘n uchinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarfodorlar” – **5 ta** byulleten bo ‘yicha **859 810 291 ta** ovoz, ya ’ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – – **1 ta** byulleten bo‘yicha **12 801 ta** ovoz, ya’ni **0,00%**;

Kun tartibining o‘n to‘rtinchi masalasi yuzasidan ovoz berish natijalari:

“Tarafdorlar” – **6 ta** byulleten bo‘yicha **859 823 092 ta** ovoz, ya’ni **100%**;

“Qarshilar” – yo‘q;

“Betaraflar” – yo‘q.

Xulosa: Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiyligini yig‘ilishi kun tartibiga qo‘yilgan barcha masalalar bo‘yicha bank Kengashining takliflari ko‘pchilik ovoz bilan tasdiqlandi.

Yig‘ilish Sanoq komissiyasi majlisining mazkur bayonnomasini bir ovozdan ma’lumot uchun qabul qildi.

Shu bilan bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiyligini yig‘ilishi o‘z ishini tamomladi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalar yuzasidan berilgan ovozlar yakuniy hisobiga ko‘ra, “Turonbank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlarining yillik umumiyligini yig‘ilishining qarori qabul qilindi.

“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
AKSIYADORLARINING NAVBATDAGI YILLIK UMUMIYLIGINI YIG‘ILISHI
Q A R O R I:

1. Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiyligini yig‘ilishi sanoq komissiyasining shaxsiy tarkibi quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

– Tangniberdiyev Nuriddin Ibragimovich – “Turonbank” ATB Xodimlarni boshqarish (HR) departamenti direktori;

– Talipov Alisher Kuchkarovich – “Turonbank” ATB Chakana biznes departamenti direktori;

– Botirov Bobur Alisher O‘g‘li - “Turonbank” ATB Moliya bozoridagi operatsiyalar departamenti direktori o‘rnbosari.

2. Bank aksiyadorlarining navbatdagi, yillik umumiyligini yig‘ilishining reglamenti tasdiqlansin. (2-ilova).

3. Bankning 2024 moliyaviy yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha hisoboti hamda 2025-yilda bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida bank Boshqaruving hisoboti tasdiqlansin. (3-ilova).

4. Bankning 2024-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha tashqi audit xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin. (4-ilova).

5. Bank Kengashining 2024-yildagi faoliyati bo‘yicha hisoboti hamda bankning rivojlanish strategiyasiga erishishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin. (5-ilova).

6. Bankning 2024 moliyaviy yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobi tasdiqlansin (6-ilova).

7. Bankning “umidsiz” aktivlarini undirish bo‘yicha qo‘llanilgan chora-

tadbirlar haqidagi hisoboti tasdiqlansin.

8. Bankning 2024-yil yakunlari bo'yicha olingan 23 158 103 597,25 so'm sof foydasini quyidagi tartibda taqsimlansin:

- Bankning 2024-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydadan 5,0 foizi miqdorida zaxira fondiga ajratma sifatida – 1 157 905 179,86 so'm;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-yanvardagi «Ilmiy-innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 24-sonli Qarori bilan tashkil etilgan Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga sof foydaning 10,0 foizi miqdorida, ya'ni 2 315 810 359,73 so'm ajratilsin;

- Nominal qiymati 1 700 so'm bo'lgan bir dona imtiyozli aksiya uchun 340 so'm yoki nominal qiymatiga nisbatan 20 foiz miqdorida dividend to'lash uchun — 1 688 950 000,00 so'm ajratilsin.

Dividend to'lash muddatining boshlanish sanasi 2025-yil 1-iyul etib belgilansin va 2025-yil 13-avgustgacha amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq to'lab berilsin.

- Bankning 2024-yil yakunlari bo'yicha olingan sof foydasining qolgan 17 995 438 057,66 so'mi Bank ustav kapitalini oshirishga yo'naltirilsin.

9. «Turonbank» aksiyadorlik tijorat bankida Korporativ boshqaruv tizimini baholash maqsadida jalb qilingan «SILK CAPITAL» MCHJ tomonidan taqdim etilgan «Turonbank» ATBda 2024-yil yakuni bilan Korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari tasdiqlansin. (Ilova -7)

10. Bank aksiyadorlarining 2023-yil 26-iyundagi navbatdagi yillik umumiyligi yig'ilishi tomonidan Bankning 2023-2025-yillar uchun har yili aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan shartnoma shartlariga asosan to'lov summasini qayta belgilash sharti bilan 3 yil muddatga tashqi auditori etib tasdiqlangan, davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida elektron savdolari natijasida eng maqbul va arzon taklif bergan tashqi auditorlik tashkiloti "ERNST YOUNG" qayta tasdiqlansin va imzolangan shartnoma shartlariga asosan unga 2025-yil uchun to'lanadigan hizmat haqqining eng ko'p miqdori QQS bilan 2 mlrd.128 mln. so'm deb belgilansin.

11. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan bankning affillangan shaxslari bilan kelgusida bankning kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiyligi yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar hamda yirik bitimlar ro'yhati tasdiqlansin. (8-ilova)

12. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlansin. (9-ilova)

13. Bank balansidan tashqari hisobraqamiga olingan undirilmagan 1 120 543 663,73 so'm asosiy va 2 974 926 858,46 so'm foiz, jami 4 095 470 522,19 so'mlik qarzdorliklar hisobdan chiqarilsin.

14. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruv Raisi Mirzayev Chori

Sadibaqosovich o‘rtasida uni ishga yollash to‘g‘risida tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini bir yil muddatga uzaytirishga ruxsat berilsin.

15. Mazkur qarorlar ijrosini nazorat qilish “Turonbank” ATB Kengashi zimmasiga yuklatilsin.

Yig‘ilish kotibi



D.T.Gaynazarova

Umumiylig‘ilish bayoni imzolangan sana: “18” iyun 2025 yil.